

**IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA TADBIRKOR  
TANLAGAN YO'NALISHINING MUHIMLIGI.**

*Turdimuratova Aziza Alisherovna*

*Termiz agrotexnologiyalar*

*va innovatsion rivojlanish instituti,*

*Agrobiznes, buxgalteriya hisobi va raqamli*

*texnologiyalar kafedrası o'qituvchisi*

*Xusanov Jonibek Ismoil o'g'li*

*"Agrobiznes va investitsion faoliyat" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Annontatsiya:** Ushbu maqolada Iqtisodiyot haqida umumiy ma'lumot va ishlab chiqarish sohalari takror ishlab chiqarish haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Korxonalar, zavodlar, ishlab chiqarish, dastur, faoliyat, tadbirlar.

Korxonalar miqyosida iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirlarning foydali natijalar berishi, olingan iqtisodiy samaraning muayyan qiymatga ega bo'lgan resurslarni qo'llagan holda eng yuqori ishlab chiqarish hajmiga erishishga sabab bo'lgan ishlab chiqarish omillari, resurslar sarflariga nisbati bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi korxonalar faoliyatining yakuniy natijasini ko'rsatadi. Miqdoriy jihatdan ishlab chiqarish samaradorligini mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mehnat miqdori bilan o'lchash mumkin, lekin mehnat sarfini aniq o'lchash ancha qiyin. Shu sababli, ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi; ishlab chiqarish vositalaridan va kapitaldan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi. Korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligining umumlashgan ko'rsatkichi tovar ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi hisoblanadi, undan tashqari puldagi harajatlar birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, balans foydaning asosiy va aylanma fondlar yigindisiga nisbati, to'la tannarx ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Mehnat unumdorligining o'sishi sur'atlari, mehnatni tejash va mahsulot hajmi o'sishida mehnat unumdorligi hissi kabi ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Ishlab chiqarish samaradorligi texnik samaradorlik (ishlab chiqarish hajmi), iqtisodiy samaradorlik (mehnat unumdorligi, mehnat resurslari, asosiy fondlar, aylanma resurslar), ijtimoiy samaradorlik (moddiy resurslar, foyda) hisobiga shakllanadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini hisoblashdan maqsad samaradorlikka nimalar hisobiga erishilganini aniqlash va yana qanday omillar evaziga uni oshirish mumkinligini belgilashdan iborat.

Mehnat unumdorligi - ishlab chiqarish jarayonida kishilar mehnatining foydaliligi, samaradorligi va mahsuldorligi; Mehnat unumdorligi ishlovchining

ma'lum vaqt birligi (soat, smena, oy, yil) ichida tayyorlagan mahsulot hajmi bilan o'lchanadi. Mehnat unumdorligi tarmoqlari va korxonalarda mehnat unumdorligi yalpi yoki sof mahsulot asosida hisoblanadi. Yillik mahsulot hajmini o'rtacha ishlovchilar soniga bo'lish orqali bir ishlovchi hisobiga yaratilgan mahsulot aniqlanadi.

Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligini ishlab chiqarishda mehnat sarfining kamayishi demakdir. Mehnat unumdorligi yuqori bo'lsa, jamiyat har bir xodim hisobiga ko'proq mahsulot tayyorlash, binobarin, o'zining o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mehnatning asosiy kapital bilan ta'minlanishini yaxshilash, fantexnika taraqqiyoti yutuqlari va yangi texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xodimlarning malakasini va texnik tayyorgarlik darajasini, madaniyatini, ma'lumotini oshirish Mehnat unumdorligi o'sishining eng muhim omillaridandir.

Takror ishlab chiqarish - sarflangan ishlab chiqarish omillari (tabiiy zaxiralari, ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari)ni qayta ishlab chiqarish yo'li bilan tiklash Uning o'zgarish ko'lamda qaytarilib turishi oddiy takror ishlab chiqarish hisoblanadi. Agar shu jarayon yangidan kengaytirilgan ko'lamda takrorlansa kengaytirilgan takror ishlab chiqarish deyiladi.

Oddiy takror ishlab chiqarishda foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillari, shu jumladan, kapital va mehnat hajmi, muayyan muddat davomida o'zgarmaydi. Bu omillarning ilgorigidek unumdorligi natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori kamaymaydi (aks holda toraygan ishlab chiqarish paydo bo'ladi) ham, ko'paymaydi ham. Kengaytirilgan T.ishlab chiqarishda, boshqa hamma sharoitlar bir xil bo'lgan holda, ishlab chiqarish omillari hajmining o'sishi ishlab chiqarishning va ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning bir yoki bir necha omillarining ko'payishi hisobiga yuzaga keladigan kengaytirilgan T.ishlab chiqarish uchun, odatda, qo'shimcha kapital qo'yilmalar talab etiladi (ishlab chiqarishga investitsiya jalb etiladi). Iqtisodiy taraqqiyot faqat kengaytirilgan T.ishlab chiqarish bo'lgandagina yuz beradi. Butun jamiyat miqyosida yalpi ichki mahsulotni (YAIM) kengaytirilgan T.ishlab chiqarish oldingi davrda jam'ar uchun ishlab chiqarilgan YAIMning bir qismidan foydalanishni taqozo etadi. Mamlakatning tiklanadigan va tiklanmaidigan tabiiy resurslari uning milliy boyligining bir qismi hisoblanadi. Tiklanadigan boyliklar — o'rmonlar, baliq zaxiralari, qishloq xo'jaligi, yer maydonlari va boshqadir. Bu tabiiy zaxiralar, odatda, uzok, muddatli T.ishlab chiqarish takror hosil bo'lish sikliga egaligi bilan ajralib turadi. Ko'pgina foydali qazilmalar — neft, toshko'mir, boksit, temir rudasi tiklanmaidigan zaxiralarga kiradi. Shuning uchun ulardan tejamkorona va samarali foydalaniladi.

Demografiyada "T.ishlab chiqarish." tushunchasi aholi sonining tiklanishi jarayonlarini tavsiflash uchun qo'llaniladi. Shartli ravishda 2 ta bolali oila oddiy T.ishlab chiqarish.ni, 3 ta va undan ko'p bolali oilalar kengaytirilgan T.ishlab chiqarish. ni bildiradi.

Texnologik jarayon - bu tizim bir biriga bog'liq harakat bo'lib, bajaruvchi tomonidan kerakli natijalar olingungacha bo'lgan jarayondir.

" Texnologik jarayon " - bu ishlab chiqarishning bir qismi bo'lib , mehnat ob'ektining holatini o'zgartirish va (yoki) aniqlash uchun maqsadli harakatlarni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish jarayonining bir qismi.

Deyarli har qanday texnologik jarayonni murakkabroq jarayonning bir qismi sifatida ko'rib chiqish mumkin va oddiy (elementar) texnologik jarayonlar to'plami. Texnologik jarayonlar "texnologik (ishchi) operatsiyalar" dan iborat bo'lib, ular o'z navbatida "texnologik o'tishlar" dan iborat.[manba?] ]

Elementar texnologik jarayon yoki texnologik operatsiya texnologik jarayonning barcha xossalari ega bo'lgan eng kichik qismidir. Ularning keyingi parchalanishi. operatsiya ushbu texnologiya asosidagi usulga xos xususiyatlarning yo'qolishiga olib keladi.</br> Ko'pincha har bir texnologik operatsiya bitta ish joyida bitta xodim tomonidan amalga oshiriladi. Texnologik operatsiyalarga misol sifatida shtrix-kod skaneri yordamida ma'lumotlarni kiritish, hisobotni chop etish , ma'lumotlar bazasiga SQL so'rovini bajarish va boshqalar kiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Жуков Э. Л. Технология машиностроения. Книга 1.
2. ЗАО АСКОН Албука ВЕРТИКАЛЬ. — ЗАО АСКОН, 2014. — С. 143. — 14.
3. [HTTPS://.iqtisod](https://.iqtisod).